

“TASDIQLAYMAN”

“Qo'ng'iroq MTU” filiali boshlig'i

T.B. Allambergenov

“20” aprel 2026 yil

“Temiryo'linfratuzilma” AJ

“Qo'ng'iroq mintaqaviy temir yo'l uzeli” filialida o'tkazilgan yig'ilish

BAYONNOMASI

2026 yil 20 aprel

Qo'ng'iroq tumani

Raislik qiluvchi:

“Qo'ng'iroq MTU” filiali boshlig'ining birinchi o'rinbosari A.S. Palimbetov

Taklif qilinganlar:

Orolbo'yi transport prokurori D.K. Madenov, “O'zbekiston temir yo'llari” AJ Korrupsiya qarshi kurashish boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari J.A. Yuldashev, Korrupsiyaga qarshi kurashish boshqarmasi hisobotlarni umumlashtirish bo'limi mutaxassisi S.X. Xolboyev, “O'zvagonta'mir” AJ Korrupsiya va komplaens nazorati mutaxassisi D.I. Musalimov, “Temiryo'linfratuzilma” AJ Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi boshlig'i B.E. Razzoqov, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi yetakchi mutaxassisi Z.N. Buriyev

Qatnashganlar:

“Qo'ng'iroq MTU” filialiga qarashli bo'lim va korxonalaridan jami 80 nafar ishchi-xodimlari

KUN TARTIBI:

Korrupsiyaga qarshi kurashish va korxonada ichki tartib qoidalariga rioya qilish

Kun tartibidagi masala yuzasidan “Qo'ng'iroq MTU” filiali boshlig'ining birinchi o'rinbosari A.S. Palimbetov so'zga chiqib, tadbir qatnashchilariga taklif qilinganlarni tanishtirib o'tib va so'z navbatini Orolbo'yi transport prokurori D.K. Madenovga berdi.

Shundan so'ng, Orolbo'yi transport prokurori D.K. Madenov so'zga chiqib Korrupsiya to'g'risida quyidagicha ma'lumot berib o'tdi.

Bugungi kunda korrupsiya muammosiga jahonning deyarli har bir mamlakatida duch kelish mumkin. Korrupsiya so'nggi yillarda xalqaro miqyosda transmilliy jinoyat sifatida tomonidan keng muhokama qilinayotgan mavzulardan biridir. Ta'kidlash lozimki, korrupsiya keltiradigan zarar barcha davlatlar uchun teng sanalib, mazkur illat davlatning turli sohalariga, xususan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy jabhalarida amalga oshirilayotgan islohotlarga hamda mamlakatning xalqaro maydondagi imidji va investitsiyaviy jozibadorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning 2020 yil 24 yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qilgan Murojaatnomasida ta'kidlaganidek, "Jamiyatimizda korrupsiya illati o'zining turli ko'rinishlari bilan taraqqiyotimizga g'ov bo'lmoqda. Bu yovuz baloning oldini olmasak, haqiqiy ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaratib bo'lmaydi, umuman, jamiyatning birorta tarmog'i rivojlanmaydi".

Xalq tilida soddagina qilib - poraxo'rlik, keng ma'noda korrupsiya, deb ataluvchi hodisa barcha islohotlar ildiziga bolta urarkan, uni keltirib chiqaruvchi sabab va qarshi kurash choralarini bilishimiz lozim bo'ladi.

Aslida korrupsiya biror mansabdor shaxsning qonunchilik va axloqqa zid ravishda o'zining boshqaruv vakolatlari va huquqlaridan shaxsiy manfaatlar maqsadida foyda olishidir.

Bugungi kunda korrupsiya holatlari temir yo'l tizimidagi korxonlardan ham ko'plab uchrayotgani achinarli holat ekanini aytib o'tdi.

Misol uchun ishchi-xodimlarning korxon moddiy boyliklariga zarar yetkazish, ularni o'g'rilik yo'li bilan talon-taroj qilish, ma'lum bir haq evaziga tanishlar orqali ishga joylash yoki qandaydir ishni tezroq hal qilib berish evaziga pora olib shunday jinoyatlarni sodir qilayotganlar haqida aytib o'tdi.

Bu illatlarga qarshi kurashishda birinchi navbatda korxon ichki tartib-qoidalariga so'zsiz rioya qilinishi, ishchi xodimlarning o'z mafkurasi ustida ishlashi, nafsga erk berib hozirgi kunni o'ylab korxon moddiy boyliklarini talon-taroj qilish orqali uning rivojiga zarar yetkazmaslik, hamda halol mehnat qilish orqali oilani boqish kerakligi tushuntirib o'tildi.

Shundan keyin "O'zbekiston temir yo'llari" AJ Korrupsiyaga qarshi kurashish boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari J.A. Yuldashev so'zga chiqib yig'ilishni davom ettirdi.

Yig'ilish davomida u shuni aytib o'ttiki Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik – bu korrupsiya alomatlariga ega bo'lgan, sodir etilganligi uchun qonun hujjatlarida javobgarlik nazarda tutilgan qilmishi tushuniladi.

Korrupsiya — shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etishi tushuniladi.

Manfaatlar to'qnashuvi — shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyat ekanligini bildirib o'tti.

Yig'ilish qatnashchilariga "O'zbekiston temir yo'llari" boshqaruv raisining 2022-yil 25-oktabr kunidagi №1015-H-sonli, 2022-yil 30-dekabr kunidagi №1228-H buyrug'lariga amal qilishini va ishchi-xodimlar korrupsiya to'g'risida o'z murojaatlarini aloqa kanallari orqali taqdim qilishlari mumkinligi aytib o'tti.

Yig'ilish davomida "O'zvagonta'mir" AJ Korrupsiya va komplaens nazorati mutaxassisi D.I. Musalimov qo'shimcha qilib Korrupsiyaga qarshi komplaens nazorati – davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi xalqaro standartlar, qonun va boshqa me'yoriy huquqiy hujjatlarga muvofiq tashkil etuvchi, korrupsiya xavf-xatarlari, manfaatlar to'qnashuvini o'z vaqtida aniqlash va chek qo'yish, qonun buzilishi va korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar berishni o'zida mujassam etgan profilaktik tizimdir.

Ta'kidlash joizki, mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish hamda ushbu turdagi jinoyatlarni sodir etilishini oldini olishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar tizimli ravishda amalga oshirilmoqda. davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiya omillarini keltirib chiqarayotgan tizimli muammolarni bartaraf etishga qaratilgan qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, amaliy hayotga tatbiq etilib kelayotganligini bildirib o'tdi.


Yig'ilish yakuniga "Qo'ng'irot MTU" filiali boshlig'ining birinchi o'rinbosari A.S. Palimbetov so'zga chiqib xulosa o'rnida shuni aytdiki uzal jamoasi bir butun oila ekanligi, oila a'zolarining bir-biriga ishonchsizligi yo'qoladigan bo'lsa o'sha oiladan barakat ketishi, shu sababli hammamiz bir yoqadan bosh chiqarib bir oila, bir jamoa bo'lib faqat rivojlanishga harakat qilishimiz zarurligini aytib o'tdi.

Kun tartibidagi ko'rilgan masalalar yuzasidan fikr va mulohazalarni inobatga olib, yig'ilish

QAROR QILADI:

1. "Qo'ng'irot MTU" filiali boshlig'ining birinchi o'rinbosari A.S. Palimbetovning ma'ruzasi ma'lumot uchun qabul qilinsin.
2. "Korrupsiyaga qarshi kurashish" mavzusida yig'ilishlar o'tkazilib borilishi yo'lga qo'yilsin.
3. Mazkur bayonnoma qarori ijrosi nazoratini o'z zimmandamda qoldiraman.

**"Qo'ng'irot MTU" filiali
Korrupsiya va komplaens
nazorati mutaxassisi:**



E.K. Babanazarov